
Fuqarolar qabuli – xalq bilan ochiq muloqot

Qo'shtepa tumani sektor rahbarlari aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, ularni qiy nab kelayotgan muammolarni aniqlash va hal etish maqsadida O'zbekiston Prezidentining tumandagi Xalq qabulxonasi fuqarolar qabulini o'tkazmoqda.

Navbatdagi fuqarolar qabulida Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari, Xalq qabulxonasi mudiri, hokim o'rribosarlari, mas'ul tashkilot hamda muassasalar rahbarlari ishtiroy etdi.

Qabul davomida fuqarolar tomonidan turli masalalarga oid taklif va murojaatlar bildirildi. Shu kuni qabul davomida 30 nafardan ziyod fuqarolar tomonidan bildirilgan turli yo'nalishdagi masalalar har tomonlama ko'rib chiqildi.

Muammolarning aksariyatiga qabul chog'ida ijobjiy yechim topildi. Ijrosi ma'lum muddat va qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan murojaatlar bo'yicha mutasaddi rahbarlarga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Qabul yakunida har bir murojaat tahlil qilinib, amaliy yordam ko'rsatish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.















2024-11-19 14:15:07